

TIL O'RGANUVCHILARNING QIZIQISHLARINI INOBATGA OLISH TAMOYILI

Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi

*FarDU, Nemis va fransuz tillari kafedrası mudiri, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori, PhD*

Annotatsiya: Maqolada til o'rganuvchilarning qiziqishlarini inobatga olish til o'rganish jarayonida qanday ahamiyatga ega ekanligi, mazmunga yo'naltirilgan darsning xususiyatlari haqida qisqacha fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: qiziqish, til o'rganuvchi, qiziqishni inobatga olish tamoyili, didaktik tamoyil, mazmunga yo'naltirilgan ta'lim, o'quv materiallarini tanlash.

Abstract: The article briefly discusses the importance of taking into account the interests of language learners in the language learning process, the characteristics of a content-oriented lesson.

Keywords: interest, language learner, the principle of taking into account interests, didactic principle, content-oriented education, selection of educational materials.

Nemis tilini chet tili sifatida o'qitishning muhim didaktik tamoyillaridan biri til o'rganuvchilarning qiziqishlarini inobatga olish hisoblanadi. Bu tamoyilda o'quv material va tashkil etilayotgan o'quv faoliyati, mashqlar, o'yin va topshiriqlar til o'rganuvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos tushishini nazarda tutadi. Nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida o'rganayotgan til o'rganuvchilarning qiziqish va ehtiyojlari birinchi chet tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish va ehtiyojdan sezilarli darajada farq qiladi.

Til o'rganuvchilarning qiziqishlarini inobatga olish yoki mazmunga yo'naltirilgan ta'lim tamoyili chet til o'qituvchisining o'quv materiallarini tanlashda, ta'lim mazmunini shakllantirishda aynan shu qiziqish va ehtiyojlarni inobatga olishi kerakligini bildiradi. Tanlanayotgan o'quv materiallari o'rganishga undovchi xarakterda bo'lishi lozim. Lekin bu jarayonda til o'rganuvchilarga ortiqcha bosim o'tkazmaslik kerak.

Mazmunga yo'naltirilgan darsning quyidagi xususiyatlarini qayd etib o'tish o'rinli:

- darsda til o'rganuvchilarni qiziqtiradigan va ularga motivatsiya beradigan mavzular taklif etiladi;

- til o'rganuvchilar dars mavzusi va mazmuni haqida oldingi bilimlarga ega bo'lishadi va shu sababli yangi mavzuni avval o'rganilganlarga bog'lashlari va unga oid o'z fikrlarini bildirishlari mumkin bo'ladi;

- til o'rganuvchilarda darsdan tashqari jarayonlarga oid mavzularda ham muloqotga kirisha olishadigan gapirish, yozish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar integratsiya qilinadi;

- bunday darslarda til o'rganuvchilar o'z yoshlariga, kundalik hayotga oid mavzularga oid iboralarni o'rganishadi;

- til o'rganuvchilarda mavzularni tanlash, ularni qayta ishlash uchun imkoniyat bo'ladi.

Lekin shuni ham aytish kerakki, barcha til o'rganuvchilarning qiziqishlarini inobatga olish juda qiyin, ba'zan esa imkonsiz ham. Agar o'qituvchining kursga tayyorlanishga vaqti kam bo'lsa, til o'rganuvchilarning qiziqishlarini inobatga olgan holda mavzular va o'quv materiallarini tanlashi yanada qiyin kechadi. Chunki til o'rganuvchilarning qiziqishlarini o'rganib chiqish, unga mos mavzu va o'quv materiallarini topish yoki shakllantirish ma'lum vaqt talab etadi. Agar mos mavzularni tanlashga ulgurilmasa, dars jarayonida turli ijtimoiy shakllar hamda topshiriqlardan foydalangan holda til o'rganuvchilarning qiziqishlarini ushlab turishga harakat qilish lozim.

Xulosa qilib aytish mumkinki, nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida o'qitishda mavzularning mazmunli hamda rag'batlantiruvchi xarakterga ega bo'lishi juda ham muhim. Chunki ko'p til o'rganuvchilar ikkinchi chet tilini o'rganishda ma'lumotlarga o'zlari kira olishlarini, topshiriqlarga yechim topa olishlarini, ko'proq mustaqil harakat qilishni xoxlashlarini va tildagi bilimlarini real jarayon bilan bog'lashni istashlarini kuzatish mumkin. Buning uchun esa chet til o'qituvchisidan beriladigan yetarli darajadagi input hamda dars jarayoniga turli axborot kommunikatsiya vositalarini joriy etish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gehring W. Fremdsprache Deutsch (DaF/DaZ) unterrichten: Kompetenzorientierte Methoden. – UTB, 2023. – T. 5030.

2. Legutke M. K. Deutsch Lehren Lernen–eine Einführung //KONTEXTE: Internationales Journal zur Professionalisierung in Deutsch als Fremdsprache. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 6-21.
3. Legutke M., Rotberg S. Deutsch Lehren Lernen (DLL)–das weltweite Fort-und Weiterbildungsangebot des Goethe-Instituts //Informationen Deutsch als Fremdsprache. – 2018. – T. 45. – №. 5. – C. 605-634.
4. Schwerdtfeger I. C. Der Unterricht Deutsch als Fremdsprache: Auf der Suche nach den verlorenen Emotionen //Informationen Deutsch als Fremdsprache. – 1997. – T. 24. – №. 5. – C. 587-606.